INKLYUZIV TA'LIMDA INDIVIDUAL XUSUSIYATLAR

Alimova Gulnora Hamzayevna
Navoiy viloyati Karmana tumani 14-"Bulbulcha" nomli
Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatning muhim vazifalaridan biri – bu alohida ehtiyojli bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularga birinchi navbatda inklyuziv ta'limni joriy etish orqali sifatli ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida keng va mazmunli fikrlar yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *xotira, idrok, tafakkur, tasavvur, diqqat-e'tibor, nutq. Inklyuziv ta'lim – ta'lim tashkilotlari uchun barcha bolalarga ta'lim berish*

Imkoniyatidir. Ushbu ta'lim insonning asosiy huquqi sifatida tushunishga asoslanadi. Inklyuziya keng ma'noda ham, tor ma'noda ham qo'llaniladi. Keng ma'noda – u urush qurboni bo'lgan alohida ehtiyojli bolalar, qochoq bo'lgan bolalar, kam ta'minlangan oilalarning farzandlari, ijtimoiy zaif oilalarning bolalari, iste'dodli bolalar, sog'ligida muammolari bo'lgan bolalar va shqalarni o'z ichiga oladi.Qo'llanmaning ushbu bobidagi metodik tavsiyalar sog'ligida muammolari bo'lgan vanogironligi tufayli alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'lim berishga taalluqlidir.Inklyuziv ta'lim g'oyalari ijtimoiy-madaniy nazariyalarga asoslanadi. Psixolog L.Vыgotskiy (1896-1934) inklyuziv ta'lim g'oyasining asoschisi bo'lib, uning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi orqali bolalar ijtimoiy muhitda eng samarali bilim oladilar. L.Vыgoskiy oliy aqliy funksiyalarning rivojlanishi ijtimoiy hamkorlikdan boshlanadi va keyin shaxsiy bo'ladi deb aytib o'tgan. Shunday qilib, bu ijtimoiy hamkorlik har doim rivojlanish va o'rganishning asosiy usuli hisoblanadi. Shuningdek, u ta'lim rivojlanishdan oldin ekanligiga ishongan.

Kattalar bolaning "bevosita rivojlanish zonasida" bo'lgan ko'nikma yoki bilimlariga e'tibor berib, o'rganishni rag'batlantirishlari mumkin. Vigoskiy "bunday rivojlanish zonasi"ni bolaning biladigan yoki qila oladigan va qobiliyatli odam yordamida nima qilishlari yoki tushunishlari mumkin bo'lgan maydon yoki makon sifatida aniqladi.

Vыgotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi pedagogning rolini aniq belgilaydi. Biz farzandlarimizni yaxshi bilishimiz va ularning "yaqin rivojlanish markazi" doirasida o'quv faoliyatini aniqlash uchun ular bilan faol muloqotda bo'lishimiz kerak. Agar bolalar birinchi navbatda ijtimoiy hamkorlik orqali o'rgansalar, biz pedagoglar bolaning boshqa bolalar va kattalar bilan o'zaro aloqada bo'lgan vaqtini maksimallashtirishimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shovqinli (lekin baland bo'lmagan), band (lekin tartibsiz bo'lmagan) guruhi –bu normal o'quv muhitidir.

Ko'pgina mamlakatlarda inklyuziv ta'lim amaliyoti bu nazariyaning to'g'riligini ko'rsatib berdi. Tadqiqotlarga ko'ra, alohida ehtiyojli bolalar o'z tengdoshlari bilan birga

o‘qisalar, o‘rganishda, ijtimoiy muloqotda ancha yaxshi natijalarni ko‘rsatishga moyildirlar.Barcha bolalar inklyuziv ta’lim amaliyotidan yaxshi foyda oladilar. Odatda, alohida ehtiyoji bor bola rivojlanayotgan tengdosh bolalar bilan bir guruhda bo‘lishi ularga taqlid qilishga, ular bilan muloqot qilishga, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi. Rivojlanayotgan bolalar alohida ehtiyojlari bor odamlar duch keladigan muammolarni tushunib boradilar. Ular boshqalarning ehtiyojlariga sezgir bo‘lib, farqlarni yaxshiroq anglaydilar. Ular barcha odamlar muhim muammolarni bartaraf eta olishlariga va uvaffaqiyatga erishishlari mumkinligini bilib oladilar.

Inklyuziv ta’lim tushunchasi

Pedagoglarga guruhida alohida ehtiyojli bolalar bo‘lishi ham manfaatlidir, bunda ular o‘quv uslublaridagi farqlarni kuzatishda malakaga ega bo‘lishlari mumkin.

Ular, shuningdek, bolalarning individual kuchli tomonlarini baholashda o‘zlariga ko‘proq ishonch orttiradilar va shu bilan birga qo‘llab-quvvatlash kerak bo‘lgan tomonlarini aniqlaydilar. Bu barcha bolalarni o‘qitishda tarbiyachilarga bolaning individual kuchli tomonini va alohida ehtiyojlarini aniqlashga va shu asosida ta’lim uslubini yaxshilashga imkon beradi. Inklyuziv ta’limning mavjudligi bolalar bir-biridan ko‘p jihatdan farq qilishini va bu farqlar to‘siq emas, balki qimmatli manba ekanligini tan olish demakdir. Bolalarning turli ta’lim ehtiyojlari va imkoniyatlari va ularning turli rivojlanish sur’atlarini o‘quv faoliyati va ta’lim strategiyasini individuallashtirish va differensiallashtirish yo‘li bilan qondirish mumkin.

Inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotlarining

o‘ziga xos xususiyatlari:

● alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning umumiy ta’limi bilan muntazam guruhlarda pedagoglar bilan birgalikda mutaxassislar jamoasi

shug‘ullanadilar;

● alohida ehtiyojga muhtoj bolalarning qanchasini bir guruhga muvaffaqiyatli

kiritish mumkinligini aniqlab olish zarur. Odatda, bu miqdor har bir bolaning xususiyatlari turiga va pedagogning o‘z maktabgacha ta’lim tashkilotidan oladigan yordamiga bog‘liq. Masalan, boshqa mutaxassislar yordami bilan pedagog faqat bitta og‘ir kasallikka chalingan bolani yoki yengil tashxis

qo‘yilgan bir necha bolani o‘z guruhiga olishi mumkin. Guruhdagi bolalar umumiy sonining 5-10% dan ko‘p bo‘lmagan shtati bo‘yicha alohida ehtiyojga muhtoj bolalarni ham o‘z ichiga olish amaliyoti mavjud. Agar guruhda 20 nafar bola bo‘lsa, alohida ehtiyojga muhtoj 1-2 nafar bolani qabul qilish;

● farzandlarining ta’lim-tarbiyasi va rivojlanishiga doir qaror qabul

qilishda ota-onalar va boshqa oila a’zolari faol ishtirok etishi;

● barcha pedagoglar (guruh tarbiyachisi, maktabgacha ta’lim psixologi va defektologi, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo‘riqchisi) jamoa bo‘lib ishlaydi va ularning

sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiradi. Qarorlar birbiri bilan samarali hamkorlik qiladigan jamoa a'zolari tomonidan qabul

qilinadi;

● strategiyalar va ta'lim berish butun bolalarning rivojlanishini ta'minlaydi va har bir alohida bolaning maxsus rivojlanish ehtiyojlarini

hisobga oladi;

● maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash individual bolaning rivojlanish

xaritasi, bolalarning kuchli tomoni va ehtiyojlarini inobatga olgan holda

tuzilgan;

● dasturlarning samaradorligi muntazam baholanadi; barcha manfaatdor tomonlar jalb etiladi (oila a'zolari, pedagoglar, boshqa mutaxassislar);

● barcha pedagoglar maxsus ehtiyojli bolalarni o'qitish va rivojlanish xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari, treninglar orqali maxsus tayyorgarlikdan o'tib, malakasini oshirishi, maxsus adabiyotlarni o'rganishlari kerak.

Individual xususiyatlar quyidagicha:

● bilish jarayonlari (xotira, idrok, tafakkur, tasavvur, diqqat-e'tibor,

nutq);

● qiziqishlar;

● tendensiyalar;

● qobiliyatlar;

● xarakter;

● temperament;

● oila va jamiyat madaniyati va boshqalar.

Bolalar bilan alohida suhbatlashish

Pedagoglar har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishlari kerak.

Ushbu xususiyatlarning ba'zilarini kuzatish orqali aniqlash mumkin emas. Balki bolalar bilan gaplashib, ularning oilada nimani qadrlashi, nimaga qiziqishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish, buning uchun ota-onasi bilan suhbatlashish maqsadga muvofiqdir.

Oila va jamiyat madaniyati

Bizning madaniyatimiz, asosan, biz nimani o'ylayotganimizni, nimani qadrlayotganimizni va qanday yo'l tutayotganimizni belgilaydi. Bolalar o'z oilasi va jamoa madaniyatiga muvofiq tarzda hayotga ijtimoiy moslashadi. Biz bolalar ehtiyojlariga ularning oilaviy madaniyati va jamoa madaniyatini hurmat qiladigan tarzda javob berishimiz kerak. Pedagoglar bolalarning imtiyozlari va qiziqishlari, til muammolari, noyob qobiliyatlari va oilaviy an'analarini hisobga olishlari kerak.

Yosh

Aksariyat uch yoshli bolalarning harakati va o'ylashi to'rt yoki besh yoshli bolalarga qaraganda boshqacha bo'ladi. Shuning uchun bolaning rivojlanish bosqichlari bilan

tanishish muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, koʻpchilik besh yoshli bolalar uch yoki toʻrt yoshlilarga qaraganda uzoq muddat diqqatlarini jamlay olishlari, yanada samarali muloqot qilishlari, koʻproq interaktiv oʻyinlar oʻynashlari, mavhum tushunchalarni yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Qanday tadbirlarni tashkil etish, ularni qanday amalga oshirish kerakligini bilishda va qancha vaqt davom etishini belgilashda yosh muhim omil hisoblanadi.

Rivojlanish darajasi

Yuqorida aytib oʻtilganidek, faqat xronologik yoshni hisobga olish yetarli emas. Samarali individuallashtirish uchun bolaning rivojlanish darajasini ham hisobga olishimiz kerak. Bolalarning rivojlanishi koʻpincha notekis boʻlib,madaniy omillar qaysidir sohada rivojlanishga ta’sir etadi. Agar guruhda qobiliyatli bolalar yoki rivojlanishida orqada qolgan bolalar boʻlsa, rivojlanish darajalari oraligʻI katta boʻladi, bu esa pedagogdan kun davomida individuallashtirishni turli usullar bilan rejalashtirishni talab qiladi.

Shaxsiyat va temperament

Shaxsiyat va temperamentning koʻpgina xususiyatlari mavjud va ularning har biridakontinuumlar mavjud boʻlib, har bir bolani ularga joylashtirish mumkin. Biz shuni bilishimiz kerakki, oʻz shaxsiyatimiz va temperamentimiz bolalarning shaxsiyati bilan mos tushishi yoki aksincha boʻlishi mumkin. Ushbu farqlarni tushungan va qabul qilgan holda biz bolalarning yashash hayotini yaxshi tomonga oʻzgartira olamiz, ularning shaxsiyati va temperamentiga mos holda mashgʻulotlar rejalashtiramiz.

Gender va gender tenglik

Bolalarga, odatda, gender asosida oʻzlariga doʻstlar va turli xil mashgʻulotlarini tanlash imkoniyati berilgan boʻlsa-da, u qachon sodir boʻlishini bilmoq kerak va barcha bolalarda turli xil material, oʻyinlar orqali kompetentligini uygʻotish maqsadga muvofiq boʻladi. Pedagoglar gender stereotiplariga qarshi turishlari, oʻgʻil bola va qizlarni turli tadbirlarda birga oʻynashga undashlari lozim.

Oʻquv uslubi

Barchada bilim va koʻnikmalarni egallashda oʻz tanlovlari mavjud. Oramizda kimdir audialdir (biz eshitish orqali yaxshiroq oʻrganamiz); yana kimdir vizualdir

(biz qanday bajarilishini koʻrishimiz, qanday bajarish kerakligini oʻqishimiz yoki rasmlar orqali koʻrishimiz kerak); boshqalar kinestetiklardir (biz nimadir

qilishimiz kerak). Yosh bolalarning ilk davrlarida ushbu koʻrsatkichlar oʻzini namoyon qilishi yoki aksincha sezilmasligi mumkin. Pedagoglar turli xil (eshitish, koʻrish va bajarish) usullar yordamida yangi bilim va koʻnikmalar orqali barcha bolalar bilim olishlarini tashkil qilishlari lozim. Barcha bolalar yutuqlarga erishishi uchun pedagoglar turli xil ta’lim uslublarini inobatga olishlari kerak.

Aql-idrok turi

AQShlik psixolog Howard Gardner (1983) sakkiz xil turdagi aql-idrokni ajratib koʻrsatdi. Bularni kuchli aql-idrok sohibi boʻlgan bolalarda aniqlab olish mumkin:

● lingvistik – so‘z va tilning tovushlarini, strukturasini, vazifasining ma’nolarini tushunadi va ishlatadi;

● mantiqiy-matematika – mantiqiy yoki sonli sxemalarni farqlaydi; mantiq asosida fikrlaydi va xulosalar chiqaradi;

● fazoviy – vizual / fazoviy dunyoni idrok qiladi va aniq ifodalaydi;

● tana-kinestetik – tana harakatlarini nazorat qiladi va ob’ektni ustalik bilan boshqaradi;

● musiqiy – ritm, ohang, maydon va tembrni qayta ishlab chiqadi va musiqiy ifoda shakllarini qadrlaydi;

● shaxslararo – boshqa odamlarning temperamenti, motivatsiyasi va istaklarini tan oladi hamda kayfiyatga mos javob beradi;

● ichki shaxsiyat – o‘z tuyg‘ularini biladi va shu asosda harakat qiladi;

● naturalistik – hayvonlar, o‘simliklar, geologiya dunyosini yaxshi tushunadi va o‘zaro hamkorlikda bo‘ladi.

Bu nazariyaning asosiy ma’nosi shundaki, ko‘pgina aql-idrok mavjuddir va ularning har biri jamiyat uchun bir xilda qiymatga ega. Ta’lim berishda esa pedagoglar, asosan, faqat ikki yoki uchtasiga e’tibor qaratadilar. Pedagoglar bolalarda alohida boshqa kuchli tomonlarni ko‘rsalar, ularni e’tiborga olish va baholash, ulardan foydalanishlari lozim.

Qiziqishlar

Ko‘pchilik bolalarda kamida bitta bo‘lsa ham qiziqish bor. Yosh bolalar uchun bu yuk mashinalari va avtomobillar, ma’lum sport turi, musiqa va qo‘shiqlar, ayrimlari hayvonlar va boshqalar uchun sevimli mashg‘ulot bo‘lishi mumkin. Pedagoglar bu qiziqishlarni turli tadbirlarga, faoliyat turlariga jalb qilishlari yoki ular bo‘yicha loyihalar ishlab chiqishlari mumkin. Ba’zan bolalar o‘z qiziqishlarini faqat uyda ifodalaydilar va uni guruh ichida namoyish etishga iymanadilar. Shuning uchun oilalarga borib, ota-onalardan ular haqida so‘rash kerak.

Kuchli taraflar va ehtiyojlar

Barcha bolalarning kuchli tomonlari (ayniqsa, ular nimani yaxshi bajaradi) va ehtiyojlari (yaxshi bajarishlari uchun ularga qanday yordam kerak) mavjud. Ba’zan kuchli xarakterlar va ehtiyojlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.

Pedagoglar o‘z ehtiyojlarini qondirishga yordam berish uchun bolalarning kuchli tomonlaridan foydalanishlari lozim. Misol uchun, guruhingizdagi ikki nafar qiz taom tayyorlash jarayoniga qiziqishi va bu uchun ko‘p vaqt sarflashi mumkin, ammo ular kitob o‘qishni umuman yoqtirmaydilar. Demak, siz ularni oziq-ovqat yoki taom tayyorlash haqidagi hikoyalar o‘qib berib, shu haqdagi kitoblar berib qiziqtirsangiz, ularning yana bir xarakterini kashf etasiz.

O‘ziga ishonch

O‘ziga ishonch ko‘rsatkichlari quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi: bolalar o‘zini qanday qabul qiladi, o‘zlarining asl kuchli tomonlarini va ehtiyojlarini qanchalik biladilar;

qanday qilib ular ma'lum bir vazifani bajarishda o'z qobiliyatlarini baholaydilar, shuningdek,biror ishni bajarish uchun kattalardan ruxsat olishi, kattalarga yordam berishi kabilar. Bolalar guruhga har xil ishonch bilan yoki o'z-o'zini yaxshi his qilib keladilar. Ba'zilar o'zlarini ojiz hisoblaydilar, boshqalar esa o'zlarini o'ta qobiliyatli hisoblaydilar. Ba'zilari bu ikki toifa o'rtasida bo'ladilar. O'z-o'ziga juda ishonish yoki vazifani bajarishda o'ziga yuksak baho berish ishonch yo'qligi kabi muammoli vaziyatlarga olib keladi. Pedagoglar bolalarga o'zo'zini haqiqiy hissiy rivojlantirishga, ular muayyan vazifalarni o'zlari bajarishlari uchun juda qiyin ekanligini aniqlash mumkin bo'lsa, ularning muammolarini (o'z samaradorligining muhim qismi) hal qilishda, resurslarni topishga yordam berishi mumkin. Ishonchni oshirish bolalarning izzat-nafsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan faoliyatini rejalashtirish ularga o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishga yordam berishning bir usulidir.

Alohida ehtiyojli bolalar rivojlanishi

Yuqorida sanab o'tilgan individual xususiyatlarga qo'shimcha ravishda, bizning guruhimizda pedagoglarning maxsus qo'llab-quvvatlashini talab qiladigan alohida ehtiyojli bolalar bo'lishi mumkin, ularni atrof-muhitda muayyan o'zgarishlarni, resurslarni, alternativ aloqa usullarini va zarur moslashuv hamda o'zgartirishlarni ta'minlash orqali guruh hayotiga to'liq kiritish mumkin. Bolaning individual xususiyatlarini rivojlantirish uning qaerda, qanday sharoitda, kim tomonidan va qachon tarbiyalanishiga bog'liq. Demak, bolaning rivojlanishi kattalar va tengdoshlariga aloqador. Har bir bola o'z shaxsiyatiga xos va noyobdir. Ta'lim va tarbiya jarayonida, eng avvalo, har bir bolaning individualligi va o'ziga xosligini hisobga olishimiz kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayoni har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritishi kerak. Individuallashtirish har bir bolaning individual rivojlanish darajasini hisobga olish va tegishli faoliyatni rejalashtirish orqali erishiladi. Bu har bir bolaga muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini beradi. Guruhning faol faoliyat jadvalida ham, dam olish vaqtida ham har bir bolaning ehtiyojlari hisobga olinadi. Guruhdagi barcha materiallar va jihozlar, o'quv muhiti bolalarning har birining rivojlanishiga, ta'limni individuallashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi –ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablaridan kelib chiqqan holda va davlat o'quv dasturiga muvofiq bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Maktabgacha ta'lim dasturi bolaning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, uning shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar ochish, kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikka asoslangan tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning ijtimoiylashuvi va individuallashuvining shartidir.

Ma'lumki, bolalar xulq-atvori bilan bir-biridan farq qiladi. Har kimning o'z

qiziqishi va qobiliyati bor. Shaxsni tarbiyalash va yaxshi bolalar jamoasini yaratishda eng yaxshi natijalarga erishish uchun pedagog tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini oʻrganishi va tushunishi kerak. Bu esa pedagog oldida turgan barcha pedagogik vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishini belgilaydi. Individuallashtirish ikki qismga oʻzaro bogʻliq – bolaning individual xususiyatlarini oʻrganish va tushunish hamda pedagogik individual yondashuvni topish yoki yaratishdan iborat. Bolani har tomonlama tarbiyalashning majburiy va zaruriy sharti uning individual sifatlarini rivojlantirishdir. Birinchidan, individual yondashuv bolaning ijobiy sifatlarini mustahkamlaydi va kamchiliklarni bartaraf etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida bola sifatining faqat kuchli tomonlariga tayanish lozim. Individual xususiyatlarni oʻrganishda bolaning ota-onasi bilan, uning oilasi bilan tanishish, oiladagi turmush tarzi va munosabatlarini bilish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, shuningdek, pedagog bolaning psixologiyasini bilmasdan turib individual yondashishi mumkin emas. Psixologiya bola tushunchasini shaxs sifatida belgilaydi. Shaxsning shakllanishi uchun oliy nerv faoliyatining xususiyatlari kata ahamiyatga ega: temperament faoliyatga, samaradorlikka, xulq-atvor muvozanatiga va turli tashqi sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ta'sir qiladi. Xarakter insonning shakllanishiga ham ta'sir koʻrsatadi. Xarakter – shaxsning oʻziga xos xususiyatlari majmui, u oʻzingiz va boshqa odamlarga nisbatan harakatlarda, mehnat qilishda namoyon boʻladi. Xarakter tugʻma emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadi.

Uni doimiy ravishda rivojlantirish kerak. Eng muhimi, xulq madaniyatini rivojlantirish: uyda, kattalar, tengdoshlar bilan muloqotda, oʻyinda, guruhda, boshqacha aytganda, bolalarning axloqiy sifatlarini tarbiyalashdir.

Uchinchidan, individual yondashuv bola faoliyatini hisobga olmasdan va uning atrof-olamga munosabatini, bola manfaatlarini hisobga olmasdan iloji yoʻq.Faol faoliyatda shaxsiy sifatlar va xarakter rivojlanadi. Faoliyat maqsadga

muvofiq va ongli boʻlishi kerak. Bolalar bilan olib boriladigan barcha ta'limtarbiya va pedagogik ishlarda individual yondashuvni kuzatish lozim. Individual yondashuv pedagogdan koʻp sabr-toqat, turli murakkab vaziyatlar va xatti-harakatlarni tushunish qobiliyatini talab qiladi. Barcha hollarda sababni topish kerak, u salomatlik, temperament, ekologik sharoitning ta'siri boʻlishi mumkin. Har kuni bolalar harakatlarini har tomonlama va chuqur tahlil qilish talab etiladi. Bolaning nima uchun salbiy harakat qilishini tushunish kerak, shunda, harakatning sababini oʻrganish va unga ta'sir qilish yoʻllarini topish, unga yondashish usulini toʻgʻri aniqlash mumkin.

Turtinchidan, bolalarning individual qobiliyatlarini oʻrganish bolani tizimli

kuzatish, u bilan pedagog oʻrtasida aloqa oʻrnatishni talab etadi. Faqat bola bilan ishonchli munosabatlarni oʻrnatish orqali siz uning xarakterining xususiyatlarini tushunishingiz mumkin. Kattalarning unga boʻlgan qiziqishi, iliq munosabati va bolaga

bo‘lgan hurmat bolada azaldan mavjud bo‘lgan barcha yaxshiliklarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalar bilan individual ishlash uchun quyidagilarga e’tibor qilish kerak bo‘ladi:

● ertalabki qabul paytida ota-onalar bilan bolaning salomatligi haqida suhbatlashish;

● har bir bolaga ularni qiziqtiradigan narsalarni bajarish imkoniyatini berish, tinch, ijobiy muhit yaratish va uni saqlash;

● nonushtaga tayyorlanganda va taomlanish vaqtida e’tiborli bo‘lib, madaniy-gigienik ko‘nikmalarga to‘liq ega bo‘lmagan bolalarga, ishtahasi yo‘q bolalarga yordam berish, sekin ovqat yeydigan bolalarni tabiat burchagida ishlashga jalb etish;

● uyatchan, tortinchoq yoki mashg‘ulotlarda qatnashmagan bolalar bilan umumiy guruh mashg‘ulotlarda ishtirok etish uchun ularni tayyorlash;

● sayrga chiqish uchun kiyinish ko‘nikmasini tarbiyalash, bemor va zaiflashgan bolalarga alohida e’tibor berish, har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularni bir-biriga yordam berishga undash;

● sayr davomida turli maqsadlarga erishiladi: uyatchanlikni bartaraf etish, yangi bolani jamoaga jalb etish, kuzatishni rivojlantirish, mashg‘ulotlarga qatnashishga tayyorgarlik ko‘rish, mehnat ko‘nikmalarini tarbiyalash;

● har qanday faoliyatda alohida o‘rnak bo‘ladigan bolalarga imtiyoz berish;

● gapirishda qiynalayotgan bolalar bilan she’rlar, tez aytishlar yod olish;

● kechqurun ota-onalar bilan muloqot qilish, kun davomida bolaning faoliyati haqida gapirib berish, savollariga javob berish, o‘zlari qiziqqan mavzu bo‘yicha tavsiyalar berish.

Inklyuziv ta’limga jalb etilgan rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan amalga oshiriladigan ish usullari sirasiga birlamchi tashxis, yakka va guruhli mashg‘ulotlarni o‘tkazish kiradi.

Birlamchi tashxis orqali korreksion-pedagogik hamda reabilitaqiya tadbirlarini o‘tkazish yuzasidan individual yo‘nalishni ishlab chiqishga doir dastlabki tavsiyalar beriladi, korreksion ish yo‘nalishlari hamda yordamning xususiy shakllari belgilanadi.

Bolaning individual yo‘nalishiga muvofiq rivojlanishidagi kamchiliklarini e’tiborga olgan holda kundalik ravishda bola bilan yakka tartibda mashg‘ulotlar olib boriladi. Mazkur mashg‘ulot davomida, bolalardagi asosiy nuqson turidan tashqari, kuzatiladigan ikkilamchi nuqsonlar korrekqiyalanadi. Frontal mashg‘ulot jarayonida defektolog ta’limiy-tarbiyaviy ishlar bilan bir qatorda korreksion ish usullaridan foydalangan holda mashg‘ulotni tashkil etadi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limi asosan bolalarning yashash joyiga yaqin bo‘lgan qo‘shma tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarda tashkil etilishi, bunday tashkilotlar barcha bolalarning turli jismoniy ehtiyojlari, yakka xususiyatlari, ularning qobiliyatlari, o‘qitish usullari va ta’lim bosqichlaridagi farqlarni aniqlab, ularning imkoniyatlari, o‘zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda, individuallashgan ta’lim-tarbiya tizimini tashkil etishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limtizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida qarori PQ-4312 08.05.2019

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi qarori -4860 13.10.2020

3. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" o'quv va metodik qo'llanma 2014-yil

4. “Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma’naviy va estetik rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-“Uzinkomsentr”-2002 yil.

5. Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobimi nujdami v doshkolnыx i shkolnix uchrejdeniyax massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RTSO Resursno’y sentr YuNESKO Tashkent 2002

6. “Dakarskiye ramki deystviy”- YUNESKO-2000 yil. Fransiyada chop etilgan. Kislitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsex»(osnovniye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opita) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuza. Tashkent, 2004

7. «Inklyuziv ta’lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.

8. Imkoniyati chyeklangan bolalar va o`smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to’g’risida muvaqqat NIZOM. O`RXTV T.,19 sentabr, 2005.

9. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995